

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR PSIXALOGIYASI**Karimova Nargiza Yaminjanovna****Renessans ta'lim universteti 5-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186902>**

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi ularning keyingi ta'lim jarayoni va shaxsiy rivojlanishi uchun asosiy bosqich hisoblanadi. Ushbu maqolada bolalar psixologiyasining muhim jihatlari, shaxsiy xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar psixologiyasini inobatga olgan holda samarali ta'lim jarayonini tashkil etish usullari batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta'lim, rivojlanish bosqichlari, emotsional intellekt, ta'lim metodlari, pedagogik yondashuv.

Аннотация

Данная статья рассматривает психологическое развитие детей дошкольного возраста как основополагающий этап для их дальнейшего образовательного процесса и личностного развития. В статье анализируются важные аспекты детской психологии, личностные характеристики, стадии развития и факторы, влияющие на них. Также подробно рассматриваются методы организации эффективного образовательного процесса в дошкольных учреждениях с учетом особенностей детской психологии.

Ключевые слова: Детская психология, дошкольное образование, стадии развития, эмоциональный интеллект, методы обучения, педагогический подход.

Abstract

This article examines the psychological development of preschool-aged children as a fundamental stage for their subsequent educational process and personal growth. The paper analyzes crucial aspects of child psychology, personality characteristics, developmental stages, and factors influencing them. Additionally, it thoroughly explores methods for organizing an effective educational process in preschool institutions while taking children's psychology into account.

Keywords: Child psychology, preschool education, developmental stages, emotional intelligence, teaching methods, pedagogical approach.

Kirish: Maktabgacha yosh davri bolalarning psixologik, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishining eng faol davrlaridan biridir. Ushbu bosqichda bola atrof-muhitni idrok etish, nutq, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish muhimdir. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ta'lim jarayonidagi yondashuvlar va pedagogik metodlar haqida fikr yuritiladi.

Asosiy qism: Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari shundan iboratki, yoshga doir turli hil ko'rsatkichlar mavjud.

Maktabgacha yosh (3-7 yosh) bolalarining psixologik rivojlanishi quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- Kognitiv rivojlanish
- Emotsional rivojlanish

- Ijtimoiy rivojlanish

Kognitiv rivojlanish – bola atrof-muhitni tushunish va o‘z fikrlarini shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu bosqichda ta’lim orqali bolaning nutqi, xotirasi, tafakkuri va eslab qolish qobiliyati mustahkamlanadi. Bu davrda lug‘at boyligi oshadi, grammatik tuzilish shakllanadi va bog‘lanishli nutq rivojlanadi. Xotira xajmi kengayib, ongli ravishda eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi¹.

Emotsional rivojlanish – bola his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqarishni o‘rganadi. Ular uchun ijobiy muhit yaratish emotsional barqarorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy rivojlanish – bolalar atrofdegilar bilan muloqot qilishni, o‘z fikrlarini himoya qilishni va jamoa bilan ishlashni o‘rganadilar.

Psixomotor rivojlanish – bolaning psixomotor rivojlanishi uning yoshi, tug‘ma va irsiy xususiyatlariga qarab intellektual va harakat qobiliyatlarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon bolaning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydi va bosqichma bosqich amalga oshadi.²

Psixolog A.N. Leontyev va L.S. Vygotskiy tadqiqotlariga asoslanib, bolalarning rivojlanish bosqichlarini quyidagi tarzda ajratish mumkin³:

3-4 yosh – mustaqillik va qiziquvchanlik shakllanadi, nutq rivojlanadi, atrof-muhitga bo‘lgan qiziqish ortadi.

4-5 yosh – obrazli fikrlash rivojlanadi, bola hayoliy o‘yinlarni afzal ko‘radi, hissiy sezgirlik ortadi. 5-6 yosh – mantiqiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati shakllanadi, ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni jadallashadi.

Bolalarning psixologik rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlardan foydalanish lozim:

O‘yin metodlari – bolalar tabiatan o‘yin orqali o‘rganadilar. Didaktik va harakatli o‘yinlar ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.⁴

Rivojlantiruvchi muhit yaratish – ta’lim muassasasida bolalar erkin o‘z fikrlarini ifoda eta oladigan muhit yaratish muhimdir.

Individual yondashuv – har bir bola o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli individual yondashuv pedagogik jarayonda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning maktabga tayyorgarligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Oilaviy muhit – ota-onalar tomonidan berilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga moslashuvini osonlashtiradi.

Muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar – maktabgacha yoshdagi bolalar guruhiiy mashg‘ulotlar orqali bir-biri bilan muloqot qilishni o‘rganishlari kerak. ⁵

O‘quv motivatsiyasi – bolalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish uchun ta’lim jarayoni qiziqarli va interaktiv bo‘lishi lozim.

XULOSA

¹ Vygotskiy L.S. “Bolalar psixologiyasi” – Moskva, 1978.

² Jalolov J. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” – Toshkent, 2019.

³ Leontyev A.N. “Psixologiya asoslari” – Moskva, 1982.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi me‘yoriy hujjatlari.

⁵ Piaget J. “Bolalar aqliy rivojlanishi” – Parij,

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi ularning kelajakdagi ta'lim jarayoni va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun bolalar psixologiyasining xususiyatlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish pedagoglar va ota-onalar zimmasiga yuklatilgan muhim mas'uliyatdir. O'yin texnologiyalari, individual yondashuv va rivojlantiruvchi muhit maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim davridagi bolalar psixologiyasi — bu bolaning shaxsiy, emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tizimli o'rganishga qaratilgan muhim ilmiy yo'nalishdir. Ushbu davr bolaning keyingi psixologik va pedagogik rivojlanishining poydevori bo'lib, uning shaxsiyati, motivatsion sohasi, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlari shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yosh davrida bolaning kognitiv (bilish) faoliyati, hissiy-ta'sirchanlik holati, nutq rivoji, o'yin faoliyati va ijtimoiy munosabatlarga kirishish ehtiyoji izchil ravishda shakllanadi. Bu jarayonlarda psixologik qonuniyatlarning to'g'ri tushunilishi va ularga asoslangan yondashuv bolani har tomonlama rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi pedagog va psixologlar uchun individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, bolalarning yosh va psixologik imkoniyatlariga mos ta'lim-tarbiya metodlarini qo'llash dolzarb ahamiyatga ega. Ota-onalar, tarbiyachilar va psixologlar o'rtasidagi samarali hamkorlik esa bolalar shaxsining barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda bolalar psixologiyasini chuqur o'rganish — bu nafaqat ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, balki jamiyatda sog'lom, aqliy va ma'naviy jihatdan yetuk avlodni voyaga yetkazishning ilmiy asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Leontyev A.N. "Psixologiya asoslari" – Moskva, 1982.
2. Vygotskiy L.S. "Bolalar psixologiyasi" – Moskva, 1978.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi me'yoriy hujjatlari.
4. Jalolov J. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" – Toshkent, 2019.
5. Piaget J. "Bolalar aqliy rivojlanishi" – Parij.